

O‘SMIRLARGA NIKOH OLDI OMILLARI HAQIDA TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI

O‘skanov Mirsaid Abdurashid o‘g‘li, stajyor-o‘qituvchi
Jizzax davlat pedagogika universiteti

oskanovmirsaid@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy jamiyatimizda oilaviy nizolarning miqdori ortib bormoqda. Shu kabi maummolarning negizida yoshlarni oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari yetarli darajada shakllanmaganligini misol qilib keltirish mumkin. Ushbu maqolada yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, nikoh oldi omillari to‘g‘risida tasavvurlarini shakllantirish, shuningdek oila xususida ijtimoiy-psixologik masalalar muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘smir, oila, nikoh oldi omillari, ijtimoiy omillar, iqtisodiy omillar, biologik omillar fiziologik omillar, ma‘naviy omillar, axloqiy omillar, psixologik omillar.

Oila deb atalmish muqaddas makon, «oila qasri»ning mustahkamligi shu qasrning poydevori bo‘lmish nikoh oldi omillari xususiyatlariga, ularning qay darajada to‘g‘ri va mustahkam qo‘yilishiga bog‘liq. Agar shu poydevor yetuk, mustahkam bo‘lsa, uning ustida qurilgan imorat ham ko‘rkam, yorug‘, unda istiqomat qiluvchilarga qulaylik, xotirjamlik, tinchlik, huzur-halovat bag‘ishlaydigan bo‘ladi.

Hech bir devor yoki uy poydevorsiz bo‘lmaganidek, Sizning qurajak oilangizning ham o‘ziga xos poydevorlari bor. Ular shu oilaning yuzaga kelishiga, qurilishiga asos bo‘lgan nikoh oldi omillaridir. Agar shu nikoh oldi omillarining oilani yuzaga kelishiga ta’siri noo‘rin bo‘lsa, u shoshilinch, bo‘sh, qiyshiq qurilsa, uning ustiga o‘rnatilgan oila imoratining devori ham qiyshiq va omonat bo‘lib boraveradi va u shu imoratning bir kuni kelib qulashi, buzilib ketishi xavfini tug‘diradi. Bunday poydevor ustiga qurilgan imorat qulab tushmagani, bo‘zilib ketmagani taqdirida ham, unda istiqomat qiluvchilarga xotirjamlik, tinchlik, quvonch baxsh eta olmaydi. Ular doimo qandaydir bir xavotirda, hadikda, noqulaylikda, xijolatda yashashlariga to‘g‘ri keladi. Shu sababli oila qurish arafasidagi yoshlarda oilaviy hayot borasidagi qarashlarini, nikoh qurish shartlaridan har tomonlama chuqur bilimga ega bo‘lishi, kelajakda jamiyatimiz farovonligiga xizmat qiluvchi oilani qolaversa yosh avlodni shakllantirishiga sabab bo‘lishi omillaridandir.

Oilaviy munosabatlar psixologiyasi xususida o‘tkazilgan muhim tadqiqotlardan biri N.Sog‘inovning o‘zbek oilasiga xos bo‘lgan nikoh va oila munosabatlari - nikohdan qoniqish, nikoh motivlari, oila qurishning o‘zbeklarga xos bo‘lgan Yosh xususiyatlari, Yosh o‘zbek oilalaridagi psixologik mojarolar va ajralishlarning sabablarini sistematik tarzda o‘rgangan ilmiy ishidir. Bu tadqiqotda ilgari hech o‘rganilmagan ilmiy ma’lumotlar to‘plandiki, ularga ko‘ra, o‘zbek oilasining qurilishiga sabab bo‘ladigan asosiy motiv—bu “Farzandli bo‘lish”, (birinchi o‘rinda), ikkinchi o‘rinda “Jamoatchilikning gap-so‘ziga qolmaslik”,

uchinchi o'rinda "Ota-ona va qavmi-qarindoshlarning istaklarini bajo etish" va hokazolar aniqlandi.

Ushbu tadqiqotdan shuni xulosa qilib aytish mumkinki hozirgi kunda yoshlar oilaviy hatotni qurish to'g'risida tushunchalari tor doirada shakllangan. Yoshlarimiz yuqoridagi fikrlariga qo'shimcha tarzda nikoh oldi omillari u yoki bu nikohning yuzaga kelishiga asos bo'lgan ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy, biologik, fiziologik ma'naviy, axloqiy va bugungi kunlarimiz uchun eng muhim bo'lmish psixologik omillarni ahamiyatini bilishlari yoshlarning oilaviy hayotga, nikoh talablariga qaydarajada javob bera olishi ular sog'lom oilaviy hayotni qurishi uchun poydevor bo'ladi deb aytishimiz mumkin

Shuningdek qizlarning turmushga chiqishiga alohida e'tibor berilishi lozim. Ularni mehnatsevar, epli qilib tarbiyalash zarur. Oila qurishda eng zarur sifatlar: erga, qayin-bo'yinga muomala qilish, bola boqish (alla, erkalash, ovutmacholarni bilish), taom pishirish, saranjom-sarishtalik, mehmon kutish kabilarni qizlarimizga o'rgatib, shu yaxshi fazilatlarga ega qilib uzatish maqsadga muvofiq. Yigit va qizning nikohgacha bir-birini yaxshi bilishi oila mustaqilligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Muhabbat tuyg'ulari strukturasi anglamaslik 38% nikohning buzilib ketishiga olib keladi.

Turmish qurish arafasidagi qizlarga yuqoridagi omillarni e'tiborga olgan holda oilaviy hayotga tayyorlash kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy holatlar oldini olishi va jamiyatda nosog'lom oilalar ko'payishi oldi olingan bo'lar edi.

Nikohdan o'tayotgan erkak va ayol oila qurishga tayyor bo'lishlari kerak. Buning uchun, birinchi navbatda, ota-ona yoki ularning o'rnini bosuvchilar farzandlarini sog'lom, odobli, mard, irodali, g'ururli, erkaklik mas'uliyatini sezadigan mehnatsevar qilib tarbiyalashlari lozim. O'g'il bolalar ayollar haqida keng va chuqur tasavvurga ega bo'lishlari kerak. Yigitlarning uy-ro'zg'or ishlarini, bozor-o'char qilishni bilishlari, oilaning qadriga yetadigan vafodor, ayolmand, bolajon bo'lishlari maqsadga muvofiq. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlab, ularni sog'lom, odobli, kattalarni hurmat qiladigan, iffatli, nomusli, iboli-hayoli, mehnatsevar, uy-ro'zg'or ishlarini olib boradigan, mehmondo'st uy bekasi darajasiga yetkazish baxtli turmushning kafolatidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 820-sonli qarorida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalari ta'kidlab o'tilgan. Yoshlar, ya'ni qizlar va o'g'illar 18 yoshdan 30 yoshgacha nikohga o'tib oila qurishlari maqsadga muvofiq, buning uchun ular avvalo 18 yoshgacha oila qurishga tayyor bo'lishlari, amaldagi er-xotinning huquq va majburiyatlarini belgilaydigan huquqiy qoidalar mazmunini o'zlashtirib, ularga qat'iy rioya qilishlari lozim, shundagina bular tuzgan oila mustahkam va barqaror bo'ladi. Qonunchiligida ham yoshlar har tomonlama oilaviy hayotga tayyor bo'lishi, shuningdek yoshlar oilada o'z haq-huquqini, vazifa va majburiyatlaridan yetarlicha habardor bo'lishi farovon oila qurishi uchun poydevor bo'lishi takidlangan. Pedagogik manbalarda shaxsni shaxs bo'lib shakllanishida uchta omilning ahamiyati muhim ekanligi keltiriladi. **Birinchi** – atrof-muhit, **ikkinchi** – ta'lim va tarbiya va **uchinchi** – irsiyat. Sohibqiron Amir

Temur ham o‘z davrida o‘g‘il uylantirish, kelin tanlash hamda farzand tarbiyasini davlat siyosati darajasiga ko‘targanligi ham bejiz emas.

Oilaning mustahkam bo‘lishidagi asosiy mas’uliyat oila boshlig‘i zimmasida, deb bilgan Sohibqiron: “O‘g‘illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e‘tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko‘rdim. Kelin bo‘lmishning nasl – nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Odamlar orqali salomatligini, jismoniy kamolotini aniqladim, odob - axloqi, sog‘lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan holi bo‘lsagina el-yurtga katta tomosha berib, kelin tushirdim” - deydi. Shuningdek, sarkardaning quyidagi so‘zlari yanada ibratli: “O‘g‘illarim, nabiralarim va yaqinlarimga biron tomchi sharob ichib, xotinlariga yaqinlashishni man etdim. Zero, sharobning ta’siri bunyodidan kelgan farzand nasl-nasabning buzilishiga ta’sir etgay, debon shu pokiza yo‘lni tutdim”. Demak, Amir Temur nafosatshunoslikni manbai pokizalik, tartib-intizom oila kuch-qudratini yuksaltirib, jamiyatga poydevor bo‘lishini yaxshi bilgan. Buyuk sarkarda boboklonimiz ham turmush qurish arafasidagi farzandlariga juft tanlashda bir qancha omillarni hisobga olgani, shundan keyingina turmush qurishlari lozimligini aytgani sog‘lom oilani garovi ekanligini takidlaganli bu jarayonning qanchalik muhimligini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga, ularning ilm olish va kasb-xunar egasi bo‘lishi uchun ko‘gina imkoniyatlar yaratilmoqda. Shuningek yoshlarimizga, oilaviy hayot qurish va uni tashkil etish yuzasidan psixologik bilim va tushunchalarni keng va yetarlicha ma’lumot berish davr talabiga aylanib bormoqda. Chunki sog‘lom psixologik muhit qaror topgan oiladagina barkamol va yurt ravnaqiga xizmat qiladigan kelajak avlodni shakllantirish mumkin. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, bu masalaga e‘tibor qaratishimiz davr talabiga aylanib o‘z dolzarbligini amaliy hayot tajribasida ko‘rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi oila kodeksining 15-moddasi
2. Oila psixologiyasi: Shoumarov G‘.B, Oila psixologiyasi. —T.: «Sharq»,2015. — 296 b
3. Miraxmedov U.M., Raxmatov B.R. Jinsiy tarbiya masalalari, -T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot, Matbaa birlashmasi, 1994, 62-bet.
4. Oynisa Musurmonova. Oila ma’naviyati-milliy g‘urur. -T.: “O‘qituvchi”, 2000, 60-bet.
5. Sog‘inov.N.A. Yuqori sinf o‘quvchilarida oilaviy hayot haqidagi tasavurlarning shakllanishida maktab psixologining roli. «Ta’lim-tarbiya muassasalarida psixologik xizmatni yo‘lga qo‘yishning nazariy va uslubiy asoslari» muammosi bo‘yicha o‘tkazilgan viloyatlararo ilmiy-amaliy anjuman ma’ruzalarining qisqa bayoni. Buxoro, 1994. - 25-27-b.